

5. Raymond W. Gibbs Jr. (1994) "The Poetics of Mind"
6. Zoltán Kövecses (2010) "Metaphor: A Practical Introduction,"
7. Anna Wierzbicka (1997) "Understanding Cultures Through Their Key Words,"
8. Charles Fillmore's (1982) "Frame Semantics Theory"

AHMAD MAMMEDOV IJODI VA SHE'RIYATIDA TARJIMANING O'RNI

*Jepbarova Sayat Kurbanmiratovna
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
Turkman tili va adabiyoti kafedrası docenti, f.f.f.d. (PhD).*

*Kurbanmiradowa Gulnaz Esen qizi
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
Turkman tili va adabiyoti yo'nalishi 2 bosqich talabasi.*

Annotasiya Maqolada turkman-o'zbek adabiy aloqalari takomilida tarjima madaniyati badiiy vazifadoshligi tahlillanadi. Unda turkman shoiri A.Mammedov lirikasi o'zbekcha tarjimasi, tushuncha nazariy asoslari o'ziga xosligiga e'tibor qaratiladi.

Kalit so'z: tarjima, shoir, lirika, adabiy aloqa, badiy vazifadoshlik, tahlil.

Azal-azaldan adabiy aloqalar va madaniy hamkorlik rishtalari so'z san'ati taraqqiyoti kafolati vazifasini bajargan. Negaki, o'zaro munosabatlar millat idrok sezgisi hamda ruhiyat mintaqalarini boyitib, ijod falsafasi teranlashuviga zamin hozirlaydi. Aslida "adabiy aloqalar tufayli muayyan millatga xos adabiy hodisa va an'analar ikkinchi xalq ma'naviy-estetik mulkiga aylanadi, badiiy qarashlari takomilini ta'minlaydi. Bunda badiiy tarjimachilik juda katta vazifa bajaradi" [1]. Ilg'or an'analar va poetik tajriba omuxtalashuvi aynan tarjima amaliyoti bilan salmoq kasb etadi. Shu ma'noda, joriy hodisa janriy barqarorlik va ma'naviy ohangdoshlikka yo'l ochadi. Unda dunyoqarash, ifoda, tasvir hamda uslub ijod uyg'unligini tayin etadigan omilga aylanadi.

Ili kiçeltmegin özüne çenli,
Özün il deñine göteriljek bol [2].

Ahmad Mammedov zamonaviy turkman she'riyati yorqin namoyandalaridan biri. Shoir ijodida xalqona falsafiy qamrov hassos tuyg'ular zamzamasini hosil qiladi. Unda so'z samimiy harorati ifoda nafosatini belgilaydigan muhim omilga yugriladi. Joriy holat muallif qalamiga mansub "Taqdirim", "Og'irdir", "Qizg'onma", "Senga aytar so'zim bor" hamda "Tog'larga yuz burdim" manzumalarida qabarib ko'rinadi.

"Kelganimda dunyoga bir siqim tuproq edim,
Mana endi bir butun zamin bo'lib turibman!"

-yozadi ijodkor "Taqdirim" she'rida. Hayrat, shur va manfaat omuxtalashgan idrok sezgisini san'atkor belgilaydigan yetakchi estetik tamoyil sifatida baholash maqsadga muvofiq. Noyob mushohadasi, teran va o'ychan ma'naviy qarashlari bilan turkman adabiyoti falsafiy-estetik asoslarini mustahkamlashga moyil shoir badiiy izlanishlarida tarixiy ruhiyat realizmini qayta tiklashga intilish bo'rtib turadi. Unda lirik-falsafiy talqin ruhiyat tahlilni teranlashtiradigan badiiy vositaga yo'g'riladi.

Ruboiy didaktik munosabat hosil qilsa-da, unda teran mohiyat mushohadaga payvandlanadi. To'rtlikning Yu.Nasim talqinida qayta tiklangan o'zbekcha tarjimasida imkon darajasida asliyat mazmuni saqlangan. Uch misrada umumiy mohiyatni asragan mutarjim to'rtinchi satrda poetik mantiqni buzadi. "Do'st" hamda "barobar" orttirma nisbatlari "el ulug'vorligi qadar yuksal" ma'nosini to'liq ifodalay olmayapti! Ikkinchi baytda aks etgan tazodiy aloqa maromi tarjimada o'z hissiy maromini biroz yo'qotgan:

Elni kichraytirma o'zing qadar to,
O'zing el bo'yiga do'st, barobar bo'l [3].

Muallif tabdilida moziy-bugun-kelajakni tutashtiradigan muayyan nuqta mavjud. Inson ichki dunyosi ziddiyatlarini tahlillash, o'zlikni anglash iztiroblarini tasvirlash hamda mavzu problematikasini badiiy sifatlarda umumlashtirish taomili shoir lirikasiga ajib bir tarovat bag'ishlaydi. Voqelik tarixi va ruhiy kechinmani yuksak poetik pardalarda kuylayotgan ijodkor sarzanishlarida inson abadiy o'y-xayollari, orzu-istaklari, teran armonu iztiroblari yaxlit manzara kasb etadi. Unda ko'ngil irmoqlaridan hosil bo'layotgan hissiy shiddat bo'hroni qad rostlaydi.

“Adabiy ta'sir, adabiy aloqa va tarjima har bir milliy adabiyot taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. Hech qaysi bir, hatto, yuksak darajadagi tamaddun bosqichlariga o'tgan mamlakat o'zga yurtlarning muayyan ta'sirlarini ijodiy o'zlashtirishsiz bu holatga yetishi mumkin bo'lmaganidek, badiiy adabiyot ham uzoq-yaqin qo'shnilarining bu boradagi tajribalari ta'sirisiz yuksalmaydi. Shu ma'noda, badiiy adabiyot doimo o'zaro ta'sir oluvchi va ta'sir etuvchi, quvvati, energiyasi shu yo'nalishda uzluksiz nafas olib turuvchi tirik organizmga o'xshaydi. O'zbek adabiyotining yuksalgan bosqichlarida adabiy ta'sir, o'zgalar tajribasidan o'rganish, tarjima masalalari ham alohida mavqega ko'tarilgani buni tasdiqlaydi” [4] yozadi akademik B.Nazarov. Vaholanki, bir tildan ikkinchi tilga o'girilgan asarda milliy ma'naviyat ifodasi va ijodkor uslubi jiddiy yangilanadi. Eng muhimi, murakkab jarayonda “tasvirdan tashqari, qiyos va tahlil ham ishtirok etadi” [5]. Aslida tarjimada so'z, ohang, marom va musiqa o'zga o'lchamga ko'chadi. Til, lug'at, milliy ifoda, dunyoqarash hamda an'anani bir butun poetik hodisaga aylantirish iste'dod darajasini taqozolashi isbot talab qilmaydigan haqiqat! Ijodiy iqtidor va hayotiy tajriba mushtarakligi asliyat hamda tarjimani bir-biriga tenglashtiradigan yetakchi omillar hisoblanadi.

Yangi bosqich turkman-o'zbek adabiy aloqalari xususida mushohada yuritilganda, A.Mammedov shaxsiyati bot-bot tilga olinadi. Bu bejiz emas, albatta. Negaki, shoir, tarjimon va olim sifatida u ikki adabiyot hamdo'stligini tayin etish, adabiy hamkorlikni mustahkamlash hamda takomillashtirishga munosib hissa qo'shib kelmoqda. “Alisher Navoiyning bir necha g'azallari, ruboiy va hikmatli so'zlari, Pahlavon Mahmud va Sulaymon Boqirg'oniy ijodidan namunalar ham Ahmad Mammedov tarjimasida Turkmanistonda bosilib chiqdi. Zamonaviy shoirlardan G'ayraty, S.Abdulla, Uyg'un, M.Shayxzoda, Zulfiya, A.Oripovlarning ijodi ham bugungi kunda turkman tarjima adabiyotining yaxshi namunalari sifatida qabul qilingan” [3]. Darhaqiqat, prof. K.Quramboyev e'tirof etganidek, Ahmad Mammedov Sharq mumtoz madaniyatini mukammal o'rgangan. Ayniqsa, aruz vazni imkoniyatlaridan o'rinli va unumli foydalanish mayli olim mushohadalarini to'liq dalolatlaydi:

Adamlar, göz áýdyň, Nowruz gelipdir,
Nowruza beslense ýyllar bagtiýar [6].

“Odamlar, ko'z oydin, Navro'z kelibdi” she'ri shoir ijodiyoti halqasida muhim o'rin egallaydi. Navro'z ayyomi muallif nazarida ko'rk, betakror farzandlik muhabbati va o'zgacha poetik tavsiflar bilan to'ldiriladi. Uning badiiyati millat manfaat-ehtiyoji hujayralariga tutashib ketadi. “Navro'zdan nur olgan yillar baxtiyor” idrokdan olingan muqoyasalarda orzu-istak-umid-ilinj-ishonch omuxtalashadi. Unda insoniyatga xos zarif xislatlar va yorug' ishonch sezgisi idrokda qayta badiiy ifoda qilinadi:

Odamlar, ko'z oydin, Navro'z kelibdir,
Navro'zdan nur olgan yillar baxtiyor [3].

Turkman shoiri she'rini o'zbekchalashtirishda imkon qadar asliyatni saqlab qolishga intiladi. So'zma-so'z tarjima vositasida muallif soddahamda ravon ifoda uslubini qayta tiklaydi. Bandlardagi fikr oqimi, mazmun va misralardagi romantik ruh originalga ohangdosh. Mutarjim turkman shoiri ifoda usuliga ijodiy tamoyildan kelib chiqqan holda yondashadi. Asliyatda mujassam badiiy mahorat qirralari tarjimada ham saqlanadi. A.Mammedov manzarani jonli va ta'sirchan gavdalanitirish uchun tasvir vositalaridan san'atkorona foydalanadi.

A.Mammedovning “Ishq – qismatim” she'riy kitobini (Toshkent, O'zbekiston, 2014) uch ijodkor tarjima qilgan. Mutarjimlar faoliyatiga nazar solsak, O.To'rayev va Yu.Nasim matnga erkin ijodiy yondashuvi kuzatilsa, A.Saidmatov so'zma-so'z tarjimaga moyilligi ko'zga tashlanadi.

“Har bir xalq o’ziga xos tarixiy, ijtimoiy, tabiiy va boshqa sharoitlarda yashaydi va taraqqiy etadi. Umumiy xususiyatlar degan narsa har safar o’zining takrorlamas qiyofasida, ham umumiy va ayni vaqtda, konkret xususiyatlar sifatida namoyon bo’ladi. Har bir xalqning milliy o’ziga xosligini tushunish uchun umumiy narsaning konkret voqe bo’lishinigina emas, balki xuddi shu xalqning o’z tajribasidan kelib chiqqan konkret takrorlanmas narsani aniqlash kerak” [5]. Tarjimada so’zning badiiy-estetik ta’siri va adabiy mahorat asosiy mezondir.

Umuman, turkman-o’zbek adabiy aloqalari tagmatnida tarjima mustahkam o’rin tutadi. Madaniy hamkorlik va ijodiy munosabatlar takomili bevosita joriy tushuncha darajasiga tutash. Negaki, unda poetik talqin va vazn qayta tiklanishi omuxtalashadi. So’z, lug’at, uslub, ifoda va mahorat uyg’unlashuvini taqozolaydigan san’at taraqqiyotida ijodiy malaka muhim ahamiyat kasb etadi. Turkman shoiri A.Mammedov lirikasi o’zbekcha tarjimalari, she’rlari tarjimasini tasniflash, ularni ilmiy asosda o’rganish hamda tajribada umumlashtirish hayotiy ehtiyoj hosilasidir. Ana shundagina ijodkor konsepsiyasini to’g’ri belgilash, g’oyaviy-estetik dunyosini teran anglash, adabiy aloqalar mohiyatini idroklash va har bir milliy adabiyot nafosatini his qilishga zamin hozirlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Salayev F., Qurboniyozov G. Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so’zligi. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010.
 2. Ahmet Mämmedow. Rubagylar we bentler. –Aşgabat, Ylym, 2012.
 3. Ahmad Mammedov. Ishq – qismatim. –Toshkent, O’zbekiston, 2014.
 4. Nazarov B. Adabiy aloqalar va tarjima nazariyasi bo’limi // O’zbek tili va adabiyoti, 2004.
 5. Calomov G’. Tarjima tashvishlari. –Toshkent: Adabiyot va san’at, 1983.
- Ahmet Mämmedow. Türkmenname. –Aşgabat, Ruh, 1996.

UNRAVELING THE WISDOM OF ENGLISH PROVERBS

*Kurbanbaeva Kamila – teacher of the English language and literature
Karakalpak State University, Nukus, Uzbekistan*

*Jalgasova Mexriban – 3rd year student of the Foreign Language and Literature
Karakalpak State University, Nukus, Uzbekistan*

Introduction. English proverbs, concise and metaphorical in nature, have played a pivotal role in the expression of traditional wisdom across generations. These short sayings encapsulate moral lessons, practical advice, and cultural beliefs, contributing not only to linguistic richness but also to intercultural communication. Their significance is especially pronounced in the context of language learning, where understanding the connotative and denotative meanings of proverbs can greatly enhance one’s fluency and cultural competence.

Theoretical and Methodological Framework. Proverbs, as linguistic phenomena, fall under the purview of paremiology — the study of proverbs and proverbial expressions. They are often analyzed through the lens of pragmatics, sociolinguistics, and cognitive linguistics. According to Mieder, proverbs are "short, generally known sentences of the folk which contain wisdom, truth, morals, and traditional views in a metaphorical, fixed, and memorable form" [1].

Methodologically, this paper employs qualitative content analysis by selecting and interpreting commonly used English proverbs. We also draw on comparative studies between English and Uzbek proverbs to highlight cross-cultural parallels and distinctions.

The Meaning and Wisdom of Common Proverbs

"The early bird catches the worm."

This proverb emphasizes the importance of initiative and timeliness. Those who start early are more likely to succeed. It promotes a proactive attitude, which is also echoed in the Uzbek equivalent: "Erta turganning rizqi ko’p" (He who wakes early gets more provision).